



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

ALISHER NAVOIY "XAMSA"SIDA MIRRIX OBRAZINING MAJOZIYLIK XUSUSIYATLARI

Mamadaliyeva Zuhra Umaraliyevna,

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

mu.zuhra@bk.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/HUOA8132

Annotatsiya: Ushbu maqolada ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlaridagi sayyoralar obrazlarining qo'llanishi to'g'risida so'z boradi. Dostonlar muqaddimalarida qo'llanilgan ushbu obrazlarning ifoda tarzi, ular anglatgan ramziy ma'nolarga qisqacha nazar tashlanadi. Ushbu obrazlar orasida nisbatan faol obraz bo'lmish Marsning turli variantlari, jumladan Mirrix, Bahrom haqida so'z yuritiladi. Obrazning Navoiy dostonlari, jumladan, "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" va "Saddi Iskandariy"dagi qo'llanilishi, bu boraagi muallif mahorati hamda obrazning tadrijiy talqini xususida so'z yuritiladi. Zarur ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan holda muayyan xulosalar chiqariladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Xamsa", sayyoralar, ramziy obrazlar, Mirrix, Bahrom, Mars, Aris, jangu jadal homiysi, muhabbat mojarolari.

METAPHORICAL FEATURES OF THE IMAGE OF THE MIRROR IN ALISHER NAVAI'S "KHAMSA"

Abstract. This article examines the use of planetary imagery in the "Khamasa" epics by the renowned Uzbek poet and philosopher Alisher Navoi. It focuses on the stylistic expression of these planetary figures, particularly in the prologues of the epics, and explores their symbolic meanings. Among the planetary images, particular attention is given to Mars, represented through various active forms, such as Mirrix and Bahram. The article analyzes how these planetary motifs are integrated into Navoi's epics, including "Hayrat ul-Abror," "Farhad and Shirin," "Layli and Majnun," "Sabai Sayyor," and "Saddi Iskandariy." The discussion highlights the poet's mastery in the gradual interpretation and artistic application of these images. The analysis is supported by relevant scholarly literature and concludes with insights into the poet's creative approach.

Keywords: Alisher Navoi, "Khamasa", planets, symbolic images, Mirrix, Bahram, Mars, Aris, the patron of battle, love conflicts.

Ulug' shoir va mutafakkir, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy qalamiga mansub yetti sayyora obrazi "Xamsa"si dostonlarining har birining muqaddimasida an'anaviy tarzda berilgan me'rojnomalarda muhim obraz sifatida uchraydi [6:84-97]. Ya'ni ularning barchasida me'roj voqeasi yetti sayyora fonida keltirib o'tilgan.

Nega aynan yetti sayyora? Chunki bu raqam sehrli raqamlarning eng mashhuri bo'lib, ayniqsa, Sharqda juda e'zozlangan. Bu raqamning kelib chiqishi va sayyoralar bilan bog'lanishi haqida ma'lumot berar ekan, S.Hasanov uni Bobilning janubida yashagan Shumerlarning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq holda tushuntiradi [13:151-161]. Adabiyotlarda Shumerlarning aslida O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari sifatida talqin etish ko'p uchraydi [6]. Bu xalqning ijodiyoti namunasi hisoblanmish "Gilgamish" dostonida muqaddas son sifatida yettilik garmoniyasi ahamiyatli obrazlardan sanaladi.

Shumerlarning madaniyatini o'zlashtirib, rivojlantirgan Bobil tamaddunida astronomiya ham asosiy o'rin egallab, Yer atrofidagi yetti sayyora (o'sha davrdagi tasavvur bo'yicha) olam va inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi yetti iloh deb qabul qilinadi. Yettilikka asoslangan hafta kunlari shakllangan. Yetti iloh har bir kunning homiysi deb belgilangan.

Yetti sayyora yetti iqlim, panteon⁷ (dastlabki madaniyatlarda barcha ma'budlarga atab qurilgan ibodatxona)ning yetti asosiy ma'budi va haftaning yetti kuni bilan ham bog'lanadi. Bu ilohlarga tegishli sayyoralar va haftaning muayyan kunlari quyidagi tartibda belgilandi:

Ilohlar	Sayyoralar	Hafta kunlari
<i>Shamash</i>	Quyosh	Yakshanba
<i>Sin</i>	Oy	Dushanba
<i>Nyergal</i>	Mirrix (Mars)	Seshanba
<i>Nabu</i>	Atorud (Merkuriy)	Chorshanba
<i>Marduk</i>	Mushtariy (Yupiter)	Payshanba
<i>Ishtar</i>	Zuhra (Venera)	Juma
<i>Ninib</i>	Zuhal (Saturn)	Shanba

Bu tartiblanish jahon ahli tafakkuri taraqqiyotining muayyan bosqichlarida o'zaro uyg'un jihatlarni yuzaga keltirdi. Natijada, Yer yuzining deyarli barcha xalqlari turmush tarzi, e'tiqodi va madaniyatiga yettilik garmoniyasi o'z ta'sirini o'tkazdi.

Shumerlarning madaniyatini o'zlashtirib, rivojlantirgan Bobil tamaddunida astronomiya ham asosiy o'rin egallab, yer atrofidagi yetti sayyora (o'sha davrdagi tasavvur bo'yicha) olam va inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi yetti iloh deb qabul qilinadi. Yettilikka asoslangan hafta kunlari shakllangan. Yetti iloh har bir kunning homiysi deb belgilangan. Bu qadriyat keyinchalik Misr, Hind, Yunon va Rim tamaddunlariga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

Islom dinining yakkaxudolik g'oyasi – Tavhid ta'sirida Musulmon sharqi tasavvurlarida olam muvozanati masalasida yettilik garmoniyasi diniy-ilohiy ahamiyatini pasaytirdi. Bobil diniy qarashlari va madaniyati orqali o'zlashgan qahramonlar endi ilohlar emas, shunchaki Yer atrofini o'rab turgan sayyoralar sifatida talqin qilina boshlandi. Biroq bu garmoniya xalqlar ongiga shunchalik singib ulgurgan ediki, odamlarning tafakkuri va iste'molidan butunlay chiqib ketmadi. Natijada, yetti sayyora haftaning yetti kuniga, yetti iqlimga va kishilar ongiga ta'sir o'tkazishi, homiylik qilishi, xosiyatli yoki xosiyatsiz ekanligi va hokazolar haqidagi qarashlar Musulmon sharqi astrologiyasida ham saqlanib qoldi. Garchi endi ular ma'budlar yoki farishtalar darajasida bo'lmasalar ham, me'rojnomalarda tasvirlanishicha, islom payg'ambarining uzangisini o'pib, uning qadami yetganidan faxrga to'lsalar ham, yashab qoldilar [7;8;9;10].

Sayyoralarning bu "xususiyatlar"i Sharq-u G'arb adabiyotida deyarli bir xil bo'lib, tamaddunlar aro ko'chib o'tishi natijasida muayyan majoziylik kasb etib ulgurgandi. Folklorshunos olim M.Jo'rayevning "Asrtal miqlar va ularning Ipak Yo'li xalqlari moddiy madaniyatidagi talqini" nomli maqolasida "Sug'diylar taqvimida ham

⁷ Bu so'z muqaddas qabriston ma'nosida ham ifodalanadi.

har bir kun muayyan sayyora nomi bilan ataluvchi ma'bud hamda ilohalar ismi bilan belgilangan"[9], deyilgan. Bu ismlarni hafta kunlariga moslashtirib, jadvalga soldik:

Hafta kunlari	Nomi	Tegishli sayyora
Yakshanba	Mixsh zaman	Quyosh
Dushanba	Max zaman	Oy
Seshanba	Varaxran zaman	Mirrix
Chorshanba	Tir zaman	Utorud
Payshanba	Ormazd zaman	Mushtariy
Juma	Anaxid zaman	Zuhra
Shanba	Kayvan zaman	Zuhal

Jumladan, yetti sayyora ham Rasululloh me'roji bilan bog'liq adabiyotlarda samo egalari deb tasavvur qilingan payg'ambarlar bilan bir qatorda tasvirlana boshladi. Nizomiy Ganjaviyning "Mahzan ul-asror"ida Rasulullohning yetti sayyora, to'rt unsur va olti jihatni ortda qoldirgani tasvirlansa-da, yetti sayyora obrazi "Layli va Majnun"dan boshlab mukammal tartibda tasvirlangan. Turkiy me'rojnomaalarda esa Navoiygacha sayyoralar tilga olinmagan. Unga ko'ra, me'rojda Payg'ambarimiz o'z ummatlarining gunohlarini so'raganliklari ta'kidlangan. "Qutadg'u bilig" muqaddimasida sayyoralar tasvirlangan, biroq ular me'roj hodisasiga bog'liq holda emas, balki Yaratganning qudratini ta'riflash maqsadida aks ettirilgan. [14].

Sayyoralar yuqoridagi tartib bilan Navoiy "Xamsa"sining har bir dostonidagi "Me'rojnoma"dan o'rin olgan. Bu me'rojnoma aksariyat Sharq me'rojnomalari kabi birinchi osmon "ega"si Oy bilan boshlanib, yettinchi osmon "sohib"i Zuhal bilan yakunlanadi. Navoiy bu borada ham Nizomiy boshlab bergan an'anani takomilga yetkazadi. Nafaqat, takomilga yetkazadi, balki uni o'ziga xosliklar, teran tafakkur va ijodiy yangiliklar bilan boyitadi. Bu borada u Ulug'bek maktabida olgan bilimlariga tayanganligi haqida navoiyshunos olim S.Azizov to'g'ri ta'kidlagan: "Alisher Navoiyning astronomik dunyoqarashi aynan Samarqandda takomillashgan va u ana shu bilimlar bilan ma'lum darajada o'z astronomik muhitiga ega bo'lgan Hirotga qaytgan". [2:13] "Sab'ai sayyor"dagi me'rojnoma ham bunga amal qilinadi. Bu yunonlar tartibiga ko'ra qatorlashtirish bo'lib, Beruniy asarlari, "Qutadg'u bilig"dagi tartib va ayni paytda Ulug'bek maktabi ham mana shu tartib tizimiga asoslanilgan.[1;5:35-42;2:128] Faqatgina "Sab'ai sayyor" hikoyatlarida bu qoida o'z ahamiyatini yo'qotadi va bu "Xamsa"dagi Bahromnomalarga Bobil madaniyatining bilvosita ta'sirini ko'rsatadi. Buning sababi tadqiqotimizning tegishli faslida batafsil ko'rib chiqiladi.

Sayyoralarining obraz sifatidagi vazifasi va majoziylik xususiyati Navoiygacha bo'lgan sharq adabiyotida ma'lum tartibga tushirilgan:

Sayyoralar	Tegishli osmon qavati	Xosiyatli yoki xosiyatsiz ekanligi	Homiylik qiladigan kun	Vazifasi
Oy	Birinchi		Yakshanba	
Utorud Atorud Myerkuriy	Ikkinchi		Shanba	Kotib va ijodkorlar homiysi, samo kotibi

Zuhra Nohid Cho'lpon	Uchinchi	Sa'di asg'ar (xosiyatli kichik sayyora)	Juma	Go'zallik va musiqa homiysi. Samo mutribi, chang va daf chaluvchi. Go'zal qiz sifatida tasavvur qilingan
-------------------------	----------	---	------	--

Quyosh, Mehr	To'rtinchi		Payshanba	Shohi anjum (Yulduzlar shohi)
Mirrix (Bahrom) Mars	Beshinchi	Naxsi asg'ar (xosiyatsiz katta sayyora)	Chorshanba	Urush va jangu jadal homiysi, jahldor va kuchli erkak sifatida tasavvur qilingan
Mushtariy Birjis Yupiter	Oltinchi	Sa'di akbar (xosiyatli katta sayyora)	Seshanba	Samo qozisi, minbar egasi, fiqihlar homiysi
Zuhal Kayvon, Saturn	Yettinchi	Naxsi asg'ar (xosiyatsiz kichik sayyora)	Dushanba	Samo hindusi, qora rangli sayyora

Navoiy ijodini kuzatar ekanmiz, biz bu obrazlarning bir necha ming yillik taraqqiyotini islomiy qarashlar bilan omixtalashgan va ayni paytda shoirning dohiyona iste'dodi bilan yangidan yangi qirralari kashf etilgan holda ko'ramiz. Shu o'rinda bir ishtiboh. Adabiyotshunos olim H.Eshonqulov "Samovot – ishq mazhari" nomli monorgafiyasida sayyoralar obrazlari haqida fikr yuritar ekan, "Alisher Navoiy va boshqa ijodkorlarimiz ma'naviy ijodiy merosi misolida ko'rib o'tganimiz yetti sayyora va o'n ikki burj mumtoz she'riyatda qo'llanish ko'lami keng bo'lgan samoviy timsollar bo'lib, ular birinchidan, o'z ma'nosida (samovot jismlari), ikkinchidan, ishq-u oshiqlik bilan aloqador murakkab ruhiy jarayonlarni ifodalash uchun faol tashbehlar vazifasini o'taydi" [12:60], deb fikr bildiradi.

Ko'rib o'tganimiz misollarda nafaqat ishq-u oshiqlik, balki yana ko'plab ma'no qirralari namoyon bo'ladi. Bu sayyoralar orasida Mirrix sayyorasi quyidagicha tasnif etiladi:

Mirrix (Bahrom, turkiycha Ko'rud, Rimda Mars) – "O'rta asr nujum ilmida yetti sayyoraning biri; Mars sayyorasi. Nirgal nomi bilan Bobil mifologiyasida paydo bo'lgan bu obraz yunon mifologiyasida Aris, Rim mifologiyasida Mars, "Avesto"da Varaxran, islom dunyosida Bahrom obrazi vositasida talqin etiladi. Urush va jang-u jadal homiysi, jahldor va kuchli erkak sifatida tasavvur etilgan.

Rim mifologiyasida dastlab Mars jamoaning qo'riqchi ma'budi hisoblangan va uning vazifasi xilma-xil bo'lgan. Rim taqvimining birinchi oyi – martda dala ishlari boshlangan va u Marsga bag'ishlangan. Dehqonlar mo'l hosil, sog'liq va uzoq umr tilab Marsga sig'inganlar. Mars sayyorasi urush, falokat va kulfatlar bilan qiyoslanadi". [3:345] Ushbu sayyora obrazi Zuhra bilan birga avval oshiq-ma'shuqlik, so'ngra er-xotinlik munosabatlariga kirishgan holda tasavvur qilanadi.

Sayyoralar Navoiy "Xamsa"sining har bir dostonidagi "Me'rojnoma"dan o'rin olgan. Bu me'rojnoma aksariyat Sharq me'rojnomalari kabi birinchi osmon "ega"si Oy bilan boshlanib, yettinchi osmon "sohib"i Zuhal bilan yakunlanadi. Navoiy bu borada ham Nizomiy boshlab bergan an'anani takomilga yetkazadi. Nafaqat, takomilga yetkazadi, balki uni o'ziga xosliklar, teran tafakkur va ijodiy yangiliklar bilan boyitadi. Bu borada u Ulug'bek Mirzo maktabida olgan bilimlariga tayanganligi haqida navoiyshunos olim S.Azizov to'g'ri ta'kidlagan: "Alisher Navoiyning astronomik

dunyoqarashi aynan Samarqandda takomillashgan va u ana shu bilimlar bilan ma'lum darajada o'z astronomik muhitiga ega bo'lgan Hirotga qaytgan". [2:13] "Sab'ai sayyor"dagi me'rojnoma ham bunga amal qilinadi. Bu yunonlar tartibiga ko'ra qatorlashtirish bo'lib, Beruniy asarlari, "Qutadg'u bilig"dagi tartib va ayni paytda Ulug'bek maktabi ham mana shu tartib tizimiga asoslanilgan [1:42; 5:35-42; 2:128]. Faqatgina "Sab'ai sayyor" hikoyatlarida bu qoida o'z ahamiyatini yo'qotadi va bu "Xamsa"dagi Bahromnomalarga Bobil madaniyatining bilvosita ta'sirini ko'rsatadi. Buning sababi tadqiqotimizning tegishli faslida batafsil ko'rib chiqiladi.

Navoiy ijodini kuzatar ekanmiz, biz bu obrazlarning bir necha ming yillik taraqqiyotini islomiy qarashlar bilan omixtalashgan va ayni paytda shoirning dohiyona iste'dodi bilan yangidan yangi qirralari kashf etilgan holda ko'ramiz. Shu o'rinda bir ishtiboh. Adabiyotshunos olim H.Eshonqulov "Samovot – ishq mazhari" nomli monorgafiyasida sayyoralar obrazlari haqida fikr yuritir ekan, "Alisher Navoiy va boshqa ijodkorlarimiz ma'naviy ijodiy merosi misolida ko'rib o'tganimiz yetti sayyora va o'n ikki burj mumtoz she'riyatda qo'llanish ko'lami keng bo'lgan samoviy timsollar bo'lib, ular birinchidan, o'z ma'nosida (samovot jismlari), ikkinchidan, ishq-u oshiqlik bilan aloqador murakkab ruhiy jarayonlarni ifodalash uchun faol tashbehlar vazifasini o'taydi"[12:60], deb fikr bildiradi.

Ko'rib o'tganimiz misollarda nafaqat ishq-u oshiqlik, balki yana ko'plab ma'no qirralari namoyon bo'ladi. Jumladan: *Mirrix (Bahrom)* – umumiy tasavvurlardan ta'sirlangan holda Navoiy asarlarida nahsi akbar (xosiyatsizlik keltirguvchi katta sayyora) sifatida akslanadi. Me'rojnomalarda u *beshinchi osmon va chorshanba kunining homiysi* sifatida ifodalangan.

"Hayrat ul-abror"da Bahrom obraziga olti marta murojaat qilingan bo'lib, to'rt marta samo jismi va ikki marotaba shoh Bahrom ma'nolarini ifodalab kelgan. Jumladan, munojotda "Bahrom o'z qatliga tig'ini o'tkirlab, o'z holiga har lahzada "darig" torta boshladi", deyiladi. Demak, Ollohning g'azabi kelganda, Bahrom qo'rqqanidan o'zini o'ldirishni ma'qul ko'rdi. Beshinchi na't, ya'ni me'rojnoma esa, yuqorida ko'rganimizdan mutlaqo boshqa manzara tasvirlangan. Uning mehrida Bahrom bir yuzli bo'ldi. Sharaf tig'i esa yuziga ko'zgu bo'lib xizmat qildi. "Hayrat ul-abror"dagi 19-bobda Navoiy Bahromni qon to'kuvchi, qotil deya ta'riflaydi. Mana shu tasvirlarning o'ziyoq bir obrazga uch tomonlama nazar solishdir.

"Farhod va Shirin"da Bahrom so'zi 38 marotaba qo'llanilgan bo'lib, shulardan uch o'rinda samo Bahromi haqida so'z ketadi. Jumladan, dostondagi me'rojnoma Bahromning xususiyati o'zgarganligi, ya'ni Rasululloh Bahromga tulporini surib borganda nahsi asg'ar, ya'ni baxtsizlik keltiruvchi katta sayyora deyilgan Bahrom katta baxt keltiruvchi sayyoraga – tole yulduziga aylanganligi ta'riflanadi.

"Layli va Majnun"da Bahrom obraziga besh marta – me'rojnoma, Husayn Boyqaro madhida va oshiq-ma'shuqlarning so'nggi uchrashuvida murojaat etiladi. Me'rojnoma Bahromning rasulullohga ehtiom ko'rsatgani birgina baytda tasvirlanadi. "Sab'ai sayyor"da Bahrom obraziga 130 marta murojaat etilgan bo'lib, ularning aksariyatida doston bosh qahramoni tilga olinadi. Doston me'rojnoma esa sayyora Bahrom rasulullohni ko'rib, uning savlatiga ko'z tashlagani zahoti qilichini qiniga soldi, deya ta'riflanadi.

"Saddi Iskandariy"da 46 o'rinda Bahrom obraziga murojaat etilgan bo'lib, uch ma'noda qo'llanilgan: Tarixiy shaxs bo'lgan sosoniy Bahromlar, doston qahramoni Bahrom Go'r va samo Bahromi.

Navoiy Bahrom – Mirrix sayyorasini beshinchi samo sohibi va Bahrom nomlari bilan ataydi. Bahrom qiyomat yaqinligini bilib, qo'rquvdan o'zini o'ldirishni ma'qul ko'rib, har lahzada tavba qildi, deydi u munojotda. Payg'ambarni ko'rgach, tig'i yuziga sharaf ko'zgusiga aylanadi, qilichini yashirdi, otining rikobini o'pdi. Rasululloh qadami sharofatidan nahsi akbarlik xususiyati o'zgarib, sa'di akbarga aylandi va qon to'kish ishidan voz kechdi, deya ta'riflaydi. Bu holatlar obrazning ming yillik majoziy xususiyatlariga Navoiyning qarashi, talqinidir.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy o'zigacha bo'lgan davrda majoziy obrazlar sifatida forsiy va turkiy adabiyotda faol qo'llanilgan yetti sayyora, jumladan Mirrix obrazini ijodiy qayta ishladi. Ushbu obrazlarni "Xamsa"ning o'zidayoq bir necha ma'no qirralarini jilvalantirgan holda tasvirladi. Uning an'ana doirasidagi kashfiyotchiligi, original obrazli fikrlashi mana shu o'rinlarda juda yorqin tarzda namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. V том. Биринчи китоб. Масъул муҳаррир: Академик И.Мўминов. – Тошкент: 1973.
2. Азизов С. Алишер Навоий асарларида фалакиёт сирлари. –Тошкент: O'zbekiston, 2018.
3. Алишер Навоий. Қомусий луғат. Икки жилдлик. Биринчи жилд. –Т.: SHARQ, 2016.
4. Алишер Навоий. Наводир ул-ниҳоя. МАТ. 20 томлик. Тузувчи: М.Раҳматуллаева. – Тошкент: Фан, 1987. Т.2.
5. Али Қушчи. Астрономияга оид рисола. –Тошкент: 1968.
6. Давлатов О. "Хамса" дostonларида меърож ҳодисасининг бадий талқини. / Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадислар./ Истиқлол даври ўзбек Навоийшунослиги. 30 жилдлик. 28-жилд. –Тошкент: TAMADDUN, 2021.
7. Зиётов З. Шумерлар ва Турон қавмлари. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2012.
8. Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеъриятида рақам рамзлари ва уларнинг талқини (XII-XV асрлар). Фил. фан. ном. ... дисс. – Тошкент: 2006.
9. Жўраев М., Холмуҳамедов К. Етти иқлимдаги "етти"лар. – Тошкент: Фан, 1989.
10. Жўраев М. Сеҳрли рақамлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991.
11. Жўраев М. Ўзбек халқ эртақларида "сеҳрли" рақамлар. –Тошкент: Фан, 1991.
12. Эшонқулов Ҳ.Коинот – ишқ мазҳари. – Тошкент: Фан, 2008.
13. Ҳасанов С. Рақамларнинг рамзий жилвалари. / Навоийнинг етти тухфаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.
14. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971.

ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING OHANG JILOLARI (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)

Aziz Rajabiy,

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti,
vokal kafedrası katta o'qituvchisi
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/AZEL3491*

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy qalamiga mansub ayrim g'azallarning ohang jilolari, musiqiy jilvalari akademik Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, musiqa, madaniy qadriyat, Rajabiy, milliy ruh, san'at, estetik tafakkur, meros, "Shashmaqom".

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Түркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majozilik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622